

**BUXORO VILOYATI TURISTIK SALOHIYATINING ISTIQBOLLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6496718>

Axmedova Saboxat Kadirkulovna

O`zbekiston Respublikasi Oliy Va O`Rta Maxsus Ta`lim Vazirligi Toshkent Viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika Instituti 5a 110501-Aniq Va Tabiiy Fanlarni O`qitish Metodikasi (Geografiya) Mutaxassisligi li Kurs Magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Buxoro tarixiga qisqacha nazar, Buxoro shahrining mashhur turizm shaharlaridan biri ekanligi, so`nggi yillarda Buxoro shahrida turizmni rivojlantirish uchun olib borilgan chora-tadbirlar haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: *turizm, ekoturizm klasteri, sayyohlik, infratuzilma, mehmonxona, manzilgothlar, qadimiy shahar.*

Buxoro viloyatida yangi tematik turistik obyekt sayyohlarga o`z eshiklarini ochmoqda. Romitan tumanida joylashgan "Bukhara Desert Oasis & Spa" innovatsion ekoturizm klasteri, shubhasiz, hech bir sayyohni befarq qoldirmaydi. Yillar davomida sahro bag`rida olib borilgan sa`y-harakatlar natijasida yangi ekoturizm markazi tashkil etilib, uning loyihalari bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Turizmni rivojlantirish vazirligining ma`lumotlariga ko`ra, bugunga kelib ushbu turizm klasteri 25 turdagi sifatli va noyob xizmatlarni mijozlarga taqdim etishni yo`lga qo`ydi. Maskanda hozirgi kunda 50 nafardan ortiq ishchi-xodimlar faoliyat yuritayotgan bo`lib, kelgusida ular safini yana-da kengaytirish va shu orqali mahalliy aholini qo`shimcha ish o`rinlari bilan ta`minlash rejalashtirilgan. "Bukhara Desert Oasis & Spa" majmuasi ayni paytda 500 nafar dam oluvchini o`z bag`riga sig`dira oladi, lekin u yerda yana qo`shimcha loyihalar ham bor. [3]. Rejaga ko`ra, sahro bag`ridagi ertaknamo manzilning xizmatlar ko`lami bosqichma-bosqich kengaytirilib, ulkan tashabbuskorlik ishlari davom etmoqda.

«Bo`rontepa» tarixiy tepaligi yaqinida yangi turistik yo`nalishlarini o`zida mujassam etgan mazkur markaz O`zbekiston Prezidentining 2017-yil 19-maydagi "2017-2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan. "Bukhara Desert Oasis & Spa" markazida qadimiy Varaxsha massivi, «Bo`rontepa» arxeologik yodgorligi, klaster hududi va Buxoro amiri Abdulahadxon chodiri bo`ylab ekskursiya qilish, o`tovda yashash, plyaj, massaj, yo`ltanlamas avtotransport vositalarida,



kvadrotsiklda va tuyalarda qum barxanlari bo'ylab sayohat, cho'l hayvonot bog'i, ekologik bog', innovatsion issiqxona, degustatsiya markazlariga tashrif, shuningdek milliy, qadimiy va Yevropa taomlari restorani, sahnalashtirilgan chiqishlar (Buxoro amiri qabuli), modalar namoyishi, konsert dasturi, yozgi kinoteatr, chilimxona, Suvenir do'koni va salqin ichimliklar bari kabi xizmatlar yo'lga qo'yilgan.[1]. Sayyohlar orasida mashhur, taniqli mutafakkirlar va muqaddas Qur'on voizlari tug'ilgan joy, viloyat markazi Buxoro shahri sharofati bilan Buxoro viloyati islom madaniyati markazi deb nomlanadi. Mintaqa tarixi miloddan avvalgi II asrga borib taqaladi va Buxoroning birinchi eslatib o'tilishi miloddan avvalgi VI asrda Fors shohi Kir tomonidan bosib olinishi davriga to'g'ri keladi. Bir vaqtlar bu hududdan Hindiston va Xitoyning savdo karvonlari o'tgan. Buxoro viloyatiga tashrif buyurganingizda bu yerda joylashgan qadimiy obidalar ko'pligi sizni hayron qoldiradi. Poi-Kalon me'moriy ansambli, ulug'vor Sitorai Moxi Xosa saroyi, Varaxsha va Poykent qadimgi manzilgohlari, Naqshbandiya so'fiylik tariqatining yettita taniqli namoyondalari maqbaralari hech bir sayyohni befarq qoldirmaydi. Ushbu diqqatga sazovor joylarning ro'yxatini cheksiz davom ettirish mumkin Qadim zamonlardan beri odamlar barcha musulmon shaharlarga osmondan ilohiy nur tushsa, faqat Buxorodan bu nur yerdan osmonga qarab ko'tarilishini aytadilar. Shuningdek, Buxoro X asrning mashhur tarixchisi Narshaxiy tomonidan deyarli tarixi to'liq hujjatlashtirilgan Markaziy Osiyodagi yagona shahar hisoblanadi. O'z asarlarida u biron bir shaharning Buxoro kabi ko'p nomlari yo'qligini ko'rsatadi. V asrda Xitoyda u Nyumi deb nomlangan, keyinchalik Tan imperiyasining manbalarida u An, Ansi, Buho va Buhe deb nomlangan. Lekin tarixda ko'pincha Buxoro nomi bilan atalgan. Etimologlarning fikriga ko'ra, bu nom sug'diylarning «buharak» so'zidan kelib chiqqan va "baxtli joy" deb tarjima qilingan. Hozir Buxoro hududida bir asrdan ko'proq vaqt oldin qurilgan, turli davrlarga tegishli bo'lgan 140 dan ortiq yodgorliklar, dahalar va mavzelar saqlanib qolgan. Buxoro nazm va ertaklar shahri deb ham ataladi, chunki butun eski shahar afsonalar va hikoyalar bilan o'rangan! Faqat Buxoroni o'zida o'rta asrlarga tegishli bo'lgan bir yuz ellikdan ortiq me'moriy yodgorliklar mavjud bo'lib, ularning aksariyati YUNESKO ning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Asrlar davomida mintaqa tarixi va madaniyati mahalliy aholi tomonidan ehtiyotkorlik bilan muhofaza qilib kelinmoqda. Ularning aksariyati rus, o'zbek va tojik tillarida gaplasha oladi. Ushbu xususiyat dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan ko'plab sayyohlar bilan suhbatlashishga aholiga yordam beradi. Sayyohlik iqtisodiyot tarmoqlarining etakchi bo'ginlaridan biriga aylanayapti.



Viloyatimiz esa bu borada benihoya katta salohiyatga ega. 660 ta moddiy madaniy meros ob'ekti ro'yxatga olinganining o'ziyoq juda ko'p narsani anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi "2017-2019 yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turistik salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2017 yil 16 avgustdagi "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari shu imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish sari tashlangan muhim qadam bo'ldi. Mazkur qarorlarga muvofiq, viloyatga tashrif buyurayotgan chet ellik turistlar va mamlakatimiz sayyohlariga qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga ko'rsatilayotgan servis xizmatlari sifatini yanada yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Mintaqamizda sayyohlik sohasini izchil rivojlantirish, turizm industriyasi va infratuzilmasini yanada takomillashtirish maqsadida Yurtboshimiz tomonidan tasdiqlangan dastur asosida jami 21 ta (shundan 17 tasi Buxoro shahrida) yangi mehmonxona foydalanishga topshirildi, 7 ta yangi zamonaviy turistik klassdagi avtobuslar xarid qilindi. Qisqa davrda aviaqatnovlar va "Afrosiyob" tezyurar poezdining harakatlanish jadvallari optimallashtirildi [2]. Buxoro shahrida yangi mehmonxonalar, madaniy-ko'ngilochar maskanlar va 500 kishiga mo'ljallangan zamonaviy amfiteatr kabi ob'ektlarni o'z ichiga oluvchi "Qadimiy Buxoro" turistik hududini barpo etish uchun 10 gektar yer maydoni ajratilib, xorijiy me'morlar bilan birgalikda loyihalash ishlari olib borilmoqda. Buxoro shahridagi sobiq "Shahriston" bozori hududida hunarmandlar markazini qurish, muqaddas qadamjolar — Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni, Xoja Orif ar-Revgariy, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol, Xoja Bahouddin Naqshband va Chorbakr majmualarida keng ko'lamlil qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilayapti. Hududning turistik salohiyatini yanada kengroq targ'ib qilish maqsadida "Ipak va ziravorlar", "Buxoro shahri kuni", "Qovun sayli" va "Buxoro hunarmandlari" festivallari tashkil etildi. Xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik mustahkamlanmoqda. Jumladan, Xitoyning Loyan va Rossiyaning Vladimir shaharlari bilan Buxoro shahri o'rtasida birodarlik aloqalarini o'rnatish memorandumlari imzolandi. Ispaniya, Yaponiya, Singapur, Indoneziya, Malayziya, Rossiya, Latviya va Turkiya kabi davlatlar bilan shu yo'nalishda muzokaralar olib borildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2017 yil 2 oktyabrda turizmni rivojlantirish bo'yicha istiqbolli davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda belgilangan vazifalarni bajarish, viloyatda ichki turizmni yanada rivojlantirish bo'yicha yangi loyiha va sayyohlik dasturlari ishlab chiqilmoqda. 2017 yilgi



qishloq xo'jaligi mavsumini muvaffaqiyatli yakunlagan fermer xo'jaliklari rahbarlari va a'zolarini rag'batlantirish, ularning maroqli dam olishlari uchun qiziqarli tadbirlarni tashkillashtirish, madaniy meros obidalari bilan tanishtirish hamda muqaddas qadamjolarga ziyorat qilishlarini tizimli amalga oshirish maqsadida "Buxoro fermerlari sayohati" dasturining amalga oshirilayotgani ham ana shunday yangiliklardan biridir. Xorijliklarning boy ma'naviy-madaniy merosimizdan bahramand bo'lishlariga imkoniyat yaratadi. Buxoro Markaziy Osiyodagi Buyuk ipak yo'lida joylashgan va jahon madaniyatida, tarixida o'ziga xos qiyofasi, madaniy meros ob'ektlari, arxitektura yodgorliklari bilan ajralib turadigan eng qadimiy shaharlardan biridir. Buxoro shahri osmon ostidagi ulkan muzey, tirik kitobdir. Uzoq va buyuk ajdodlarimizning ko'plab avlodlari tomonidan o'ziga xos me'morchilik uslublarida barpo etilgan. Buxoro shaxri millatimiz iftixoridir. Ikki yarim ming yildan ko'proq vaqt ichida yaratilgan yaxlit arxitektura ansambllari Buxoro me'morchilik maktabining mevasidir.[3]. Buxoro shahrining me'morchilik tarixi uning g'arb tomonidan sharq tomoniga qarab davom yetadi. Sharq obidalari tarixi g'arbda Ark madaniy meros ob'ekti va Ismoil Somoniy maqbarasidan boshlansa, Poyi Kalon me'moriy ansabli, savdo rastalari - «toq» va «tim» lar, Labi Hovuz arxitekturaviy ansambli va boshqalar orqali borib Chor Minor madrasasiga taqaladi. Buxoroning arxitekturaviy ansambllari yuz yilliklar, ming yilliklar davomida shakllangan bo'lib, ular yagona rejaviy va ajm-fazoviy kompozitsiya bilan bog'liqdir. Milodning boshida poydevori o'yilgan Ark qal'asi, IX asrda barpo etilishi boshlangan Somoniylar mabarasi, XII asr va undan keyingi davrda yaratilgan Poyi Kalon, Labi hovuz me'moriy ansambllari va boshqa ko'plab monumental arxitektura mo'jizalari Buxoro arxitektura maktabining mahsuli bo'lib, binokorlik an'alarining yuksak namunasi sifatida umumjahon madaniy merosi deb tan olingan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Buxoro qadim tarixga ega shaharlardan biri hisoblanib, hozirgi kunda turistik viloyat hisoblanadi. Turizimni rivojlantirish istiqbollari uchun keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda va qadimiy Buxoro shahri sayyohlar e'tiborini tortmoqda. Ayniqsa sayyohlarga xizmat ko'rsatishda barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bunday turizm sohasidagi islohotlar nafaqat viloyat turistik salohiyatini oshiradi balki yangi ish o'rinlari yaratilishiga olib keladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi "Moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"da Pq-4068-sonli qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5781-son Farmoni.
3. 4.www.xs.uz